



OLMA DARAXTIDA UCHRAYDIGAN MONILIOZ KASALLIGIGA QARSHI KURASHISH CHORALARI.

1. O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali kichik ilmiy xodimi Aymuratov Damir Alpisbay o‘g‘li

2. O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali laboranti Ibragimova Zinora Kuvatbayevna

3. O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston Respublikasi filiali laboranti Aymuratova Diana Alpisbay qizi

Annotatsiya: Olma daraxtida uchraydigan monilioz kasalligiga qarshi kurashish bo‘yicha so‘z yuritiladi.

Kalti so‘zlar: Monilioz kasalligi va uning belgilari hamda qarshi kurashish choralari.

KIRISH.

Monilioz kasalligi (МОНИЛИЯ ФРУСТИГЕНАМ) olma mevalari chirib, yaroqsiz holga keladi. Mevalar nafaqat bog‘da, balki omborda ham bu kasallik bilan zararlanadi. Zamburug‘ mumsimon qurigan meva hamda boshqa zararlangan qismlarda qish-lab chiqadi. Mevaga olma qurti va boshqa hasharotlar, qushlar, do‘l hamda parsha kasalligi jarohatlagan joydan yuqadi. Zararlangan-dan so‘ng 3–5 kun o‘tib mevalar qo‘ng‘ir rangga kiradi, 8–10 kun o‘tib sporalar paydo bo‘ladi. Bahorda daraxtlarning gullash davrida havo haroratining salqin va namlikning yuqori kelishi kasallik-ning keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Zamburug‘ sporalari havoning harorati 24–28 0 S, nisbiy namligi esa 75% dan yuqori bo‘lganda avj olib rivojlanadi.

Mevaning chirishi qo‘ng‘ir rangli kichkina dog‘dan boshlanadi va tezda butun mevani qoplaydi. Natijada meva eti yumshab, qo‘ng‘ir tusga kiradi va mevaning ta‘mi o‘zgaradi. Vaqt o‘tishi bilan qurigan mumsimon mevalar tushmasdan daraxtlarda osilib qoladi. Hamma zararlangan qismlari keyingi yil bahorgacha daraxtda saqlanib qoladi.



Kurash choralari. Bu kasallikning oldini olish uchun qish-lovchi infeksiyasi boʻlgan mumlangan mevalarni terib yoʻqotish lozim. Chunki bu mevalarda ham kasallik rivojlanib, keyin tarqalishi mumkin. Vegetatsiya davrida tarkibida tebukanazol, trifloksistrobin, tebukanazol + trifloksistrobin, propika-nazol, tiofanat metil yoki piroklotsistrobin+boskalid boʻlgan preparatlar bilan ishlov berish kerak. CILLIT 40% sus. k. (400 g/l) 1,0–1,5 l/ga Oʻsimlikning oʻsuv davrida ikki martagacha purkaladi.

Mevali daraxtlardagi parsha, monilioz kokkomikoz, klasterosporioz, barg buramasi va boshqada har hil kasalliklarini yoʻqotishda bordo suyuqligining 3 foizligi (100 l suvga 3 kg mis kuporosi +3 kg soʻndirilmagan ohxak) sepiladi. Uning oʻrniga temir kuporosi (100 l suvga 2—3 kg) yoki mis kuporosi (100 l suvga 0,5— 1 kg) ni ham sepish mumkin. Behi va boshqa turdagi zararlangan meva daraxtlarida moniliozga qarshi kurtaklar boʻrtish arafasida daraxtlarni 3—4 foizli bordo suyuqligi bilan jiqqa xoʻllab yuvish zarur. Bunda 5 gradusli ohak+oltingugurt qaynatmasi (ISO) yoki 2—3 foizli temir kuporosi yoki 1 foizli mis kuporosini qoʻllasa ham boʻladi.

Bordo suyuqligining 1 % eritmasini tayyorlash. 100 g mis sulfat olish va uni 1 litr isitilgan suvga toʻkish kerak. Olingan massani aralashtirgandan va sovutgandan soʻng, unga 4 litrsovuq suv qoʻshing. Keyinchalik, 100 g qizdirilgan suvni isitilgan suv bilan oʻchirish kerak. 5 litr hajmda suv qoʻshib, eritmani aralashtirish kerak. Shundan soʻng, mis eritmasidan tarkib topgan vitriol misini ohak eritmasiga toʻkib tashlash, aralashtirish va misning reaksiyasini bajarish bilan butun eritma samoviy rangga ega boʻlgunga qadar kerak.

Bordo suyuqligining avfzalliklari. Tayyorlash jarayoni juda oson va fermerlar oʻzlari tayyorlashi mumkin. Bordo suyuqligi fungitsid, bakteritsid va algitsid vazifasini oʻtashi mumkin. Bordo suyuqligi pomidor, qalampir, boshqa sabzavotlar, mevalar (apelsin, limon, laym), barg kemiruvchilari, zanjabil, gullar va boshqa manzarali oʻsimliklardagi poya va ildiz boʻgʻzi chirishi, barglardagi dogʻlar va kuyishlar, antraknoz, rak, qora dogʻlar, sohta un shudringi, erta va kech kuyish kabi kasalliklarni nazoratga olish uchun qoʻllanishi mumkin. Bordo suyuqligini tayyorlash uchun zarur elementlar mis sulfati va ohakni doʻkonlardan osonlikcha topish mumkin. Barglardagi dogʻlar va ulardagi kuyish kabi aksariyat zamburugʻ kasalliklari tarkibida bordo suyuqligi kabi mis boʻlgan



fungitsidlar bilan nazoratga olinishi mumkin. Ushbu suyuqlik insonlar va tabiat uchun aksariyat kimyoviy fungitsidlardan havfsiz.

Foydalangan adabiyotlar.

1. OLMA DARAXTI ZARARLI ORGANIZMLARIGA QARSHI KURASH
P.A.Гулмуродов, А.А.Рустамов, А.А.Рахимова, Н.Б.Жумаева.
2. <https://uz.yellowbreadshorts.com/1507-how-to-cure-apple-trees-from-disease-effective-methods.html>
3. <https://uz.pastureone.com/25569-diseases-and-pests-of-apple-trees-causes-and-struggl.html>

